Maktabgacha yoshdagi bolalari tasviriy faoliyatga o'rgatishning metod va usullari

Safarova Mohigul Sayfulla qizi
Farg'ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalarga rasm chizishga o'rgatish 2 yoshdan boshlanadi. Bu davr bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish davri deyiladi. Bu davrda bolalar qalamni to'g'ri ushlashni, uni qog'oz yuzasiga chizishni asta-sekinlik bilan o'rganib boradilar lekin bu jarayonni bir o'zlari amalga oshirolmaydi shuning uchun tarbiyachi bolalarga qalamni qanday ushlash kerakligini urgatadi. Bundan tashqari bolalar tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida asosan amaliy ish bajaradilar.

Kalit so'zlar: Tasviriy faoliyat, aqliy rivojlanish,ijodiy qobilyat, metod, usul.

Metod so'zining ma'nosi – o'rgatish uchun yagona yo'l digan ma'noni anglatadi. U mag'ulotda bolalar bilan tarbiyachining butun faoliyatini belgilab bermaydi balki, manashu butun bir faoliyati davomida kerak bo'adigan ayrim vositadir xolos. Shuning uchun ham o'rgatish metodi ta'limda tor ma'nodagi ahamiyatga egadir. Ba'zi bir metodlar mashg'ulotni umumiy xaraterini aniqlamasdab baliki, unga usul sifatida namayon bo'ladi. Masalan, tarbiyachi mashg'ulotni boshida bolalarga sher yoki hikoyani ularni mashg'ulotga jalb qilish uchun uqib berishi mumkin, boshqa mashg'ulotda bo'lsa sher yoki hikoya tarbiyachi uchun xizmat qiladi, ya'niykim tarbiyachi mashg'ulotni tashkil qilish uchun sherdan foydalanadi.

Y.B.Babanskiy tasviriy faoliyat metodlarini faoliyatning umumiy xarakteriga binoan, uch guruhga klassifikatsiyalagan:

1-guruh; o'quv-bilish faoliyatini tashkillashtirish hamda uni amaliyotga tatbiq etsh. Bu guruhga o'quvchilaming ko'rgazmali va og'zaki, amaliy, induktiv, deduktiv, reproduktiv hamda muammoli-izlanuvchan va mustaqil ishlarini o'z ichiga oladi.

2-guruh; ta'lim berishda o'quv jarayonini stimullashtirish (qiziqtirish va rag'batlantirish) hamda motivatsiyalash (maqsadga yo'naltirish) metodlari. O'quvchi yoshlarga o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda burch va javobgarlikni motivlashtirish lozim.

3-guruh; o'quv faoliyat jarayonida nazorat hamda o'z-o'zini nazorat qilish metodlari;
— og'zaki nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish;
— yozma nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish;
— laboratoriya amaliy nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish;

Y.B. Babanskiyning ilm fanga taklif etgan bu metodlar ko'proq maktab ta'limidagi bolalarga mos bo'lib, ularning 1-guruhidangina maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga mashg'ulot davomida foydalaniladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar tomonidan o'zlari yasagan buyumlar katta ahamiyatga egadir. Shu bois ham bolalarning mustaqil ishlariga murakkab muommoli masalalarni yechish kiritilmaydi. Boshqa qolgan metodlar maktabgacha yoshdagi bolalarga anchagina qiyinchilik keltiradi chunki, qolgan metodlarning hammasida muommoli masalani yechishga qaratilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosoy faoliyati o'yin bo'lganligi sababali mashg'ulot ichida turli o'yinlardan foydalaniladi.

o'yinlardan foydalaniladi.

***Ko'rgazmali metod hamda uni o'rgatish usullari**:*

Maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlarda foydalaniladigan ko'rgazmali metod tasviriy faoliyat mashg'ulotining ajralmas qismi disak xam bo'ladi. Chunki, tasviriy san'at mashg'uloti ko'rishdan va kuzatishdan iborat bo'lgan mashg'ulotdir. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda qanchalik ko'pkuzatish, atrof- muhitni ko'rinishi bilan bilan aloqa

o'rnatish,umumiylikni hamda yakkalikni farqlay olish ko'nikmasi tarbiyalanga bo'lsa, bolada shunchalik ijodiy qobilyatining o'sishiga olib keladi. Shuningdek, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga kuzatishni o'zigina tavirlash jarayoni uchun yetarli emas. Shu bois ham bolalarni tasviriylikning asosiy usullariga hamda har xildagi tasviriy materiallardan foydalanish yo'llariga o'rgatish kerak. Ko'rgazmali metod va o'rgatish usullariga ; natura, namuna, rasm reproduksiyalaridan, bolalarni qo'l mehnatini mashg'ulot oxirida ko'rsatish hamda uni baholash kiradi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi 4-5 yoshli bolalarda qobilyati o'ta yuqori bo'lsa ham ularning rassom yoki maktab ta'limidagi uquvchilardan chizgan naturasi o'ziga xos hamda ancha katta farq qiladi. Chunki, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun aniq shaklga ega hamda aniq chizmali rasm natura ko'rinishida beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qodirova F.R, Qodirova R.M. Bolalar metodik ishlar. Darslik.2012.

2. Qayumova N. Makatgabcha pedagogika. T 2013.

3. Qodirova F. R. Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi. T. 2013.

Internet manbaalari:

1. https://gendocs.ru
2. https://n.ziyouz.com
3. http://www.genderi.org

WORDLY KNOWLEDGE